

YUQUMLI KASALLIKLARDA VETERINARIYA-SANITARIYA EKSPERTIZASI

O‘rinova Moxira Baxromjon qizi-
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi
chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti Toshkent filiali talabasi

Annotatsiya: Maqolada yuqumli kasalliklarda veterinariya-sanitariya Ekspertizasi jarayonida mutaxassislar bilishi lozim bo‘lgan ilmiy asosli ma’lumotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur ma’lumotlarni har bir inson bilishi foydadan holi emas.

Kalit so‘zlar: go‘sht mahsulotlari, yuqumli kasalliklar, hayvon, odam, kuydirgi, sil, brusellyoz.

Yuqumli kasalliklar odamlar uchun havfliligidan kelib chiqib ikki guruhga bo‘linadi: - Go‘sht va go‘sht mahsulotlari orqali odamlarga o‘tadigan kasalliklar (kuydirgi, sil, brusellyoz, ovsul, leptosperoz, listerioz, ku-lihoradka, saramas (cho‘chqa) tulyaremiya va boshqalar). - Go‘sht va go‘sht mahsulotlari orqali odamlarga o‘tmaydigan kasalliklar, bu guruhni o‘zi ikkiga bo‘linadi. a) odamlar kasallanadiganlar, lekin go‘sht mahsulotlari orqali o‘tmaydiganlar. (aktinomikoz, qoqshol, xavfli shish, psevdotuberkulyoz va boshqalar. b) odamlarda uchramaydigan yuqumli kasalliklar (pasterellyoz, cho‘chqa o‘lati, yomon sifatli kataral isitma va boshqalar). Hayvonlarning yuqumli kasalliklarini bunday turkumlanishi sanitariya ekspert vrachlarini asosiy e’tiborini birinchi guruh kasalliklariga qaratadi va agar bunday kasalliklar so‘yishdan oldin va keyin aniqlanganda qanday chora tadbirlar ishlab chiqish va bajarish kerakli haqida ma’lumotga ega bo‘lishlari lozim.

KUYDIRGI- (Anthrax). Kuydirgi atropozoonoz kasallik bo‘lib, barcha qishloq xo‘jalik xayvonlari, ko‘p turdagi yaylov hayvonlar va odamlar kasallanadi. Kasallik og‘ir zaharlanish sepsimiya belgilari va karbunkulalar hosil bo‘lishi bilan harakterlanadi. **Qo‘zg‘atuvchisi-** Basillis antrakcis. Harakatsiz, gramm musbat aerob

tayoqcha bo'lib, uzunligi 4-8 mkm gacha, qalinligi 1-1,5 mkm. Tashqi tomondan kapsula bilan o'ralgan zanjirsimon ip hosil qiladi. Organizmdan tashqari muhitda 15-42° haroratda, 8-10 soatdan keyin, tashqi muhitga chidamli mustahkam qobiq (kapsula) hosil qiladi. Kasallik mikroblari 60° C haroratda 1 soatda, 50 % li Xlorli ohak eritmasi ta'sirida 15-20 daqiqada, 10 % li natriy va kaliyli ishqor eritmalari ta'sirida 2 soat va avtoklavda 125-130° da 30 daqiqada halok bo'ladi.

So'yishdan oldin diagnoz qo'yish: Kuydirgi - o'tkir, yashinsimon va surunkali kechadi. Hamda teri va o'pka va ichak formasi kuzatiladi. Qoramol va qo'ylarda ko'pgina holatda kasallikni o'tkir formasi hos bo'lib, qo'ydagi klinik belgilar namoyon bo'ladi. Tana harorati 40-42° C ga ko'tariladi, holsizlanish, nafas olishi va yurak urishi tezlashadi, tashqi shilliq qobiqlar ko'karadi, ich qotishi yoki qon o'tadi, ba'zida qon siydik bilan ham ajraladi. Teri yoki karbunkulyoz forma ko'pincha qoramollarda, ayrim paytlarda qo'ylarda uchraydi. Teri formasida tanani turli joylarida og'riqli shishlar paydo bo'ladi, qoramollarda ba'zi hollarda og'izda haltasimon shishlar hosil bo'ladi shilliq pardada. Bu formada ham tana harorati ko'tariladi. **Surunkali - holatda** kasallangan hayvonlar tez oriqlaydi va pastki jag' ostida shish (infil'trat) paydo bo'ladi, keyinchalik bosh oblasti limfa tugunlari kattalashadi, bu formada kasallik 2-3 oy davom etishi mumkun. **Ichak formasi** - kasallikni bu holatda kechishi ham uchraydi, bunda hayvonlarda tinchsizlanish, ich ketish, ich og'rig'i kuzatiladi. Cho'chqalarda yuqorida keltirilgan belgilar bo'lmasdan, balki holsizlanishi, charchash, yorug'likdan qo'rqishi va ovqatlanmaslik kuzatiladi. ko'pincha cho'chqalarda kasallikni angina formasi uchraydi, bunda hiqildoq yallig'lanadi, bosh oblasti limfa tugunlari kattalashadi. Yutish va nafas olishi qiyinlashadi, yo'tal paydi bo'ladi. Kasallikning o'pka formasi juda kam uchraydi. Bunda o'pka shishlari paydo bo'lishi bilan harakterlanadi.

So'yilgandan keyin diagnoz: Kuydirgi kasalligida asosiy patologoanatomik o'zgarish teri osti klechatkasida, limfa tugunlarda, hamda ichki organlarda ko'riladi.

Teri osti klechatkasida gemoragik yiringli shishlarni ko'rish mumkin. Bunday shishlar tananing turli joylarida masalan qorin, yelka, ko'krak, yelin va boshqa

qismlarda paydo bo'lishi mumkun. Shishlar atrofidagi limfa tugunlari ham kattalashgan qattiq qisib ko'rilganda gemmoragik -ekssudativ yallig'lanish holatida bo'ladi. Ichki organlardan taloq 3-4 marta kattalashgan, yumshoq, parenhimasi ezilgan qoramtir rangda. Jigar konsistensiyasi idragan, yuzasida ko'p qon quyilishlar, atrofidagi limfa tugunlari kattalashgan, buyrakda ko'p qon quyilishlar kuzatiladi. Cho'chqalarda alohida o'zgarishlar kuzatiladi. Ularda surunkali angina formasida kuzatiladi. Bunda halqum va hiqildoqda limfa tugunlari yiriklashadi, konsistensiyasi yumshaydi, kesilganda yuzasi to'q qizil rangda bo'lib tugun atrofida esa shilimshiq qonli shishlar va yiring ko'rinadi. **Kuydirgi kasalligining boshqa o'xshash kasalliklardan farqi (differensal):** Kuydirgi kasalligi qoramollarda qorason, pasterillyoz va pirop plazmoz kasalliklariga o'xshash tomonlari bor. Ular quyidagilar: 1. Qorason kasalligida muskul to'qimalarining kuchli infiltratsiyasi, gimoliz, muskul hujayralarining tarkibiy o'zgarishi natijada muskul to'qimasida ko'p gazni hosil bo'lishi sababli qo'l bilan bosilganda g'ijirlagan ovoz chiqarishi, bu kuydirgida kuzatilmaydi. 2. Pirop plazmozda to'qimalarda sarg'ayish, taloq kattalashgan lekin kesilganda parenximasi ezilmagan oqmaydi. Teri osti klechatkasida gemmoragik yallig'lanishlar kuzatilmaydi. 3. Pasterellezda esa tanadagi yallig'lanish shishlari gemmoragiyasiz bo'lib, bu shishlar bosh sohasida, bo'yin va ayrim hollarda ko'krak pastida joylashadi. Kuydirgi kasalligida esa shishlar tananing har qanday joyidan chiqishi mumkun. Pasterellyozning ko'krak formasi ko'pincha plevmoniya bilan kechsa, kuydirgida pnevmaniya bo'lmaydi. Taloq pasterellyozda kattalashmaydi va konsistensiyasi qattiq bo'ladi. **Kasallik aniqlanganda so'yish joyidagi ko'riladigan veterinariya sanitariya chora tadbirlari:** Agar so'yish joyida kuydirgi kasalligiga gumon qilingan tana aniqlansa zudlik bilan jarayon to'xtatiladi va gumon qilingan tanadan limfa tugunidan va taloqdan namuna olinib laboratoriyaga bakterioskopik va bakteriologik tekshirishga jo'natiladi. Agar bakterioskopik tekshirish natijasi kuydirgi kasalligini tasdiqlasa, bakteriologik tekshirish natijasini kutmasdan butun olingan mahsulotlar veterinariya qonunchiligi asosida kuydirilib yo'qotiladi. Sog' hayvonlardan olingan terilar, kasal hayvon terisiga tekkan bo'lsa, ular dezinfeksiya

qilinadi, veterinariya qoidalariga asosan. Gumon qilingan tanadan oldin o'tgin tanalar, bu tanadan uzoq bo'lib tegmagan bo'lsa, u paytda tegmagan tanalar sovitish xonasiga olib kelinadi va umumiy qoidalar asosida sotish choralari ko'riladi. Agar oldin so'yilgan mol tanalari kuydirgi qo'zg'atuvchisi bilan dastlabki qayta ishlashda zararlanganlikda gumon qilinsa 6 - soat ichida zararsizlantirish uchun qaynatiladi, ochiq qozonlarda 3 - soat davomida, yopiq qozonlarda 2.5 soat. Agar zararsizlantirish uchun tezda imkoniyat bo'lmasa unda gumon qilingan tanalar alohida 10°C haroratdagi kameralarga joylashtirilib, 48 soatdan kechiktirilmasdan zararsizlantirilishi kerak. Bu ishlarni amalga oshirish imkoniyati bo'lmasa gumon qilingan go'sht tanalari kuydirilib yo'qotiladi. Go'sht korxonalarida shu smenada yig'ishtirilgan qon kuydirgi mikrobi bilan zararlangan bo'lsa, unda qon 130-140 ° da avtoklavda 2-4 soat mobaynida zararsizlantiriladi. Bordiyu avtoklav bo'lmasa qonni zararsizlantirish uchun 100 ° da 2-2.5 soat qaynatiladi va oqmaydigan idishlarga olinib yo'qotish joyiga yuboriladi. Mol bazalarida kuydirgi bilan kasallangan mol saqlangan bo'lsa u binolar xlorli ohaklar bilan dezinfeksiya qilinadi. Ishchilarning mahsus kiyimlarini zararsizlantirish uchun avtoklavda 20 atm. bosimda 125-130° haroratda 1 soat davomida ushlab turiladi. Ishlatilgan jihozlar (pichoq, vilka va boshqa) 5 % li sodada 1 soat qaynatiladi. Kasal hayvonlar bilan ishlagan kishilar 6 kun mobaynida vrach nazoratida bo'ladi. Hayvonlarni so'yish joylarida o'tkazilgan barcha tadbirlar bo'yicha dalolatnoma tuziladi. Butun tozalash va dezenfiksiya ishlari tugatilgandan so'ng korxona ish boshlaydi. Bozorga sotish uchun olib kelingan tana go'shtida kuydirgi aniqlansa. Tezda ekspertiza laboratoriyasi binosidan bu tana va unga tegishli narsalar chiqariladi va kuydirish kerak, bino esa tarkibida 5 % aktiv xlor bo'lgan ohak bilan dezinfiksiya qilinib, 1 soatdan keyin tozalanadi va chiqindilar kuydiriladi. So'ng bino ishqoriy (NaOH) eritma va hlorli ohak bilan 3 marta dezinfiksiya qilinadi.

SIL - TUBERKULOSIS: Bu kasallik bilan barcha qishloq xo'jaligi, yovvoyi hayvonlar, parrandalar va odamlar kasallanadi. Sil kasalligi har xil organlarda kasallik uchun mahsus bo'lgan tugunchalar, ya'ni tuberkulinlar paydo bo'lishi va bu tugunchalarda tvorogsimon mahsulotni turlanishi va ohaklanishi bilan harakterlanadi.

Qo'zg'atuvchisi - *Musobakterium tuberculosis* - aerob, harakatsiz, kamgina bukulgan tayoqchamsimon uzunligi 1,5-5,5 mkm bulgan mikrob, qobiq va kapsula hosil qilmaydi. Har xil fizik faktorlari past, yuqori temperaturalarga chidamli. Kasallik mikroblar 60° da 1 soat, 70° da - 10 minutda, 100° da shu vaqtda o'ladi. Ximiyaviy faktorlar kislata va ishqorlarga ham chidamli bo'lib 5% li kaliy va natriy ishqori eritmasi ta'sirida 2,5-3 soatda o'ladi. Tabiatda sil qo'zg'atuvchisini 3 tipi mavjud. 1. Odam tipi (*humanus*). 2. Qoramol tipi (*bovinus*). 3. Parranda tipi (*ovinus*) deb yuritiladi.

Hayvonlarni so'yishdan keyingi diagnoz: Organ va to'qimalarni tuberkulyoz (sil) bilan jarohatlanishi 2 xil ya'ni; produktiv yoki ekssudativ formalarda kechadi. Kasalliklarni produktiv formasi quyidagilar bilan harakterlanadi: ya'ni organ va to'qimalarda tugunchalar yoki tuberkulalar hosil bo'ladi. Tugunlarni hosil bo'lishida, boshida yarim yaltiroq bo'lib, keyinchalik qattiqlashadi. ya'ni tugunlarda jarayonni ohiriga borib tvorogsimon massa to'planadi va ohaklanish sodir bo'ladi. Kasallikni bu formasi veterinariya ekspertizasi nuqtai nazardan unchalik xavfli emas chunki bu formada sil mikroblari go'shtda oz bo'ladi. Sil kasalligi ekssudativ formasida, sil mikroblari bilan zararlangan organ yoki to'qimalarda tugunchalar hosil bo'lmasdan, u joylarda yarim suyuq fibrinli ekssudat va limfasit hujayralari yig'iladi. To'qimalarning oralig'iga yig'ilgan ekssudat-limfositlar bilan birgalikda och -sariq bo'tqaga aylanadi. Och- sariq bo'tqa ba'zan ohaklashib g'ilofni ichiga o'raladi. Ba'zi hollarda quyuqlashib yiringa o'xshab qoladi. Kasallikni ekssudativ formada o'tishi ancha xavfli bo'lib, bu formada kasallik mikroblari go'shtga va qonda ham ko'p uchraydi. Qoramollarda - ko'p hollarda o'pka sili uchraydi. Bunda o'pkada tariq donidan kaphtar yoki g'oz tuxumi kattaligidagi tugunchalarni ko'rish mumkun. Tugunlar tashqi tomondan biriktiruvchi to'qimali qobiq bilan o'ralgan bo'lib, kesib qaralganda och qizil-sariq rangda bo'lib, ichida tvorogsimon bo'tqa chiqadi. Tugunchalar avvalo yumshoq bo'lib, keyinchalik qattiq tugunchaga aylanadi. Silni surunkali formasida tugunchalar ohaklashadi. Upkadagi sil ayrim vaqtlarda juda tezlik bilan taraqqiy qilib yoyiladi. Bu jarohat yuzani kengayib ketishiga va kovernalar hosil qilishiga olib keladi. Ba'zan kovernalar bronxlar bilan qo'shilib ketishi ham mumkun. Bu holat kovernalar

ichida yig'ilgan tvorogsimon bo'tqani (maccani) shilimshiqqlar bilan birgalikda bronxlar orqali tashqariga chiqishiga olib kelishi ham mumkun yoki koverna ichida qolishi mumkun. Agar kovernalar kesib ko'rilsa, kesilgan yuza sarg'ichroq yoki oqimtir-qizg'ish bo'lib ichidan tvorogsimon yiringli suyuqlik chiqadi. O'pka sili har doim bronxlarni yallig'lanishi bilan birgalikda kechadi, shuning uchun bronxlar ochib ko'rilsa uni shilliq qavati qizargan, shishgan bo'lib ichki devori shilimshiq yiringli ekssudat bilan qoplangan bo'ladi. Shikastlangan plevrada ayrim holatda qorin devorining tashqi seroz qoplamalarida donador to'q qizg'ish va qizil kulrangli o'simtalar bo'lib ularning konsistensiyasi qattiq va ular ingichka oyoqchalari bilan plevra yoki qorin devoriga yopishgan bo'ladi. Bu o'simtalar kesib ko'rilganda ichida tvorogsimon yoki ohaklangan fonuslarga ega bo'ladi. Bu o'simtalarni seroz qoplamasi o'sib har xildagi donador tasvirlarni hosil qilishi marvaridlar deb ataladi. Ayrim hollarda marvaridlar butun plevrani yuzasini qoplaydi. Plevrani bu darajada jarohatlanishi, keyinchalik yurakni bo'lmachalarini tashqi yuzasini jarohatlanishiga olib keladi. Bunda yurakni muskuli rangi oqish-kulrangga ega buladi. Sil kasalligini bunday kechishida broix va o'pkani oraliq linfa tugunlari ham jarohatlanadi, bunda ular kattalashib - qattiqlashadi va g'adur-budur notekis yuzalarni hosil qiladi. Kasallikni o'tkir formasida tugunlar ichida tvorogsimon massa yigiladi. keyinchalik surunkali kasallik formasiga o'tganda tugunchalar ichida ohaklanishni ko'rishimiz mumkun. Bu vaqtda tugunchalarning tashqi yuzasi qattiq biriktiruvchi to'qima bilan o'rab olingan bo'ladi. **Taloq , jigar va buyrakni** yuzasida ham qattiq tugunchalar bo'lib, ular kesib ko'rilganda ichidan tvorogsimon bo'tqa chiqadi yoki ohaklanishni ko'rish mumkun. Bu vaqtda tugunchalarning tashqi yuzasi qattiq biriktiruvchi to'qima bilan o'rab olingan bo'ladi. Taloq , jigar va buyrakni yuzasida ham qattiq tugunchalar bo'lib, ular kesib ko'rilganda ichidan tvorogsimon bo'tqa chiqadi yoki ohaklanishni ko'rish mumkun. Bu tugunchalarni ustki yuzasi qattiq biriktiruvchi to'qima bilan qoplangan bo'ladi. **Ichaklarni sil kasalligida** jarohatlanishi juda kam uchraydi, faqat ularni tutqichlaridagi limfa tugunlar jarohatlanib, ulardagi o'zgarish boshqa tugunlaridagi kabi kechadi. **Sut bezida** - sil kasalligi asosan ularni yuqori qismida kechadi va bu

joyda yiringli, tvorogli yoki ohaklashgan tugunchalar bo'lib, yuzasi qattiq biriktiruvchi to'qima bilan qoplangan bo'ladi. Natijada yelin qattiqlashib noteks bo'ladi. **Cho'chqalarda** sil bilan jag' osti, bo'yin va oraliq limfa tugunlari jarohatlanadi, kamdan kam holatlarda taloq, o'pka, jigar va buyrakda jarohatlanish kuzatiladi. Xiqildoqning shilimshiq pardasida kichik sarg'omtil shishlar bo'lishi, shishlarning ichi esa kesilganda yiringli bo'lib, ularni atrof to'qimalari kuchli darajada qizargan bo'ladi. Ayrim hollarda shishlar ajralgan bo'lib, ustki yuzasi biriktiruvchi to'qima bilan qoplangan bo'ladi. Bunday shishlar kesib ko'rilganda, kesilgan yuzada tvorogsimon bo'tqa yoki ohaklashishni ko'rish mumkun. **Jag' osti, hiqildoq va bo'yin** limfa tugunlari bir hilda kattalashgan va noteks bo'lib qattiq konsistensiyaga ega bo'ladi. Bu tugunlar kesilganda ichi juda qizargan yiringli, surunkali formada esa ichida tvorogsimon bo'tqa yoki ohaklangan holatda bo'ladi. **O'pkada** tvorogsimon - yiringli yoki quruq tvorogli tugunchalar topiladi, ular har xil kattalikda va qattiq konsistensiyali bo'ladi. **Taloqda** -ko'proq, **jigarda** -kamroq tugunchalar aniqlanib ular kesilganda yuzasi sarg'imtil yoki oq- kulrangli bo'ladi. **Buyrakda** ham har xil nato'g'ri shaklga ega bo'lgan tuguncha bo'lib kesilganda, kesilgan yuza oq-kulrang va oq-sarg'ish rangda bo'ladi va ichida yiringli yoki tvorogsimon bo'tqa bo'lmaydi. Tugunlarni atrofi qattiq biriktiruvchi to'qima bilan o'ralgan bo'ladi. **Muskul** to'qimalari ichida ham tariq donidek yoki no'xot kattaligida tugunchalar bo'lib, tugunchalar kesilganda rangi oq-sarg'ish yoki oq-kulrangda bo'ladi. Ular markazida esa yiringli yoki tvorogsimon bo'rqa to'planganligini ko'rishimiz mumkun. **Qo'y-echkilarda** - sil tugunchalari o'pkada, taloqda, jigarda va shularga tegishli limfa tugunlarida ko'rinadi. Tugunchalarni tashqi tomoni qattiq biriktiruvchi to'qima bilan qoplanadi, tugunchalar kesib ko'rilganda ular markazida yiringli tvorogsimon bo'tqani ko'rish mumkun, ayrim hollarda markazda ohaklanish tuzlari ham uchraydi. **Organizmda tuberkulyoz** - jarohatlarini (tugunchalarini) tarqalishiga qarab alohida organlarni jarohatlanishi bilan yoki generalizasiyalangan (ko'p organlarni) zararlanishi bilan kechadigan formalarda uchraydi. Agar veterinariya - sanitariya ekspertiza tekshirishlarida zararlanish bitta organda (o'pkada, ichakda, limfa tugunlarida yoki

biror organda) uchrasa, bunda lokalniy forma, yoki sil bilan zararlanish yuqorida ko'rsatib o'tilgan bir nechra organ va to'qimalarda uchrasa generalizlangan (tarqalgan) forma deyiladi. Ekspertiza vaqtida tuberkulyoz o'choqlari aniqlansa, bu vaqtda tananing semizligiga e'tibor beriladi. Chunki tuberkulyoz bilan kasallangan hayvonlarda intaksikatsiya natijasida tanada yog' to'qimalari to'planishi bo'lmaydi, hayvon ariqlagan xolatda bo'ladi. **Sil kasalini boshqa o'xshash kasalliklardan farqlash (defrensial diagnostika):** Sil kasalligida hayvonlarni so'yilganidan keyingi potologanatomik o'zgarishlari, bir necha kasalliklarga o'xshash bo'ladi. 1. Aktinomikozda shishlar kesib ko'rilganda ko'pgina o'choqlarda cho'ziluvchan yiring to'plangani ko'rinadi. Bu o'choqchalarda tvorogsimon bo'tqa bo'lmaydi. Shu bilan birgalikda aktinomikozda atrof linfa tugunlari zararlanmaydi. 2. Paratuberkulyozda muskul oralarida kaptar tuxumi kattaligida shishlar bo'ladi. Lekin bu tugunchalar kesib ko'rilganda ichida ko'kimtir-sarg'ish yiring bo'lib, silda bunday bo'lmaydi, yoki asosan ichaklarda yallig'lanish jarayoni yaxshi rivojlangan bo'lib, ichak devorlari qalinlashib el daraxtini po'stlog'ini eslatadi, silda bu holat bo'lmaydi. 3. Exinakokkoz kasalligida o'pka, jigar, taloqda ko'p kamerali exinakokkoz pufaklari bo'lib, bu pufaklar kesilganda ichidan suyuqlik chiqadi. Ba'zi holatlarda buyrak, taloq va o'pkada mayda ohaklashish tuzlari bo'lgan o'choqchalarni ko'rishimiz mumkun. Bu kasallikda atrof limfa tugunlarida zararlanishlar kuzatilmaydi. **Go'sht va boshqa mahsulotlarni veterinariya - sanitariya jihatidan baholash:** Sil kasalligini generalizlangan (bir vaqtda bir necha organ va to'qimalarni zararlanishi) formasida so'yilgan hayvonni semizlik darajasiga qaramasdan, uning go'shti va ichki organlari texnik utilizatsiya qilinadi. Bundan tashqari oriq tana go'shti va ichki organlari, hamda biror bir organ yoki limfa tugunida jaraxatlanish aniqlansa texnik o'til qilinadi. Agar yuqori va o'rta semizlikdagi tanani tekshirishda faqat bitta organ yoki limfa tugunida jarohatlashish aniqlansa, unda jarohatlangan organ texnik yo'qotilib, qolgan go'sht va ichki organlaridan, qaynatilgandan so'ng konserva tayyorlanadi. Sil bilan kasallangan hayvonlar terisi ham, oddiy usulda tuzlanadi. **Cho'chqalarda** - pastki jag' yoki hiqqildoq limfa tugunlarida sil tugunlari aniqlansa, unda bosh qismi qaynatishga

yuboriladi, ichki organlar va go'shti to'xtovsiz ishlatiladi. Bir vaqtda organlar yoki tanada sil jarohati aniqlansa, kasallikni qaysi formada kechishidan qat'iy nazar o'tilizasiya qilinadi. Faqat ichakni limfa tugunlari zararlangan bo'lsa, unda ichak o'tilizasiya qilinib qolgan organ va go'sht to'liq ishlatiladi. **Parranda va quyon** sil bilan kasallanishi aniqlansa, o'rta darajadagi semizlikka ega tana go'shti 100° C da 1 soat qaynatilib ishlatiladi, ichki organlari o'tilizasiya qilinadi. Sil bilan kasallangan hayvon tanalarini qayta ishlashda ishlatilgan jihozlar, 5 % li gidrokarbonat natriy eritmasida 10 daqiqa qaynatilib sterillanadi.

BRUSELLYOZ: Brusellyoz surunkali kechadigan yuqumli kasallik bo'lib, barcha qishloq xo'jalik hayvonlari, ko'pgina yovvoyi hayvonlar va odamlar kasallanadi. Odamlar brusellyoz bilan hayvonlar bilan ishlash, ular tanasini qayta ishlash vaqtida, shaxsiy gigiyenaga to'liq rioya qilmaslik natijasida va shu bilan birgalikda zararsizlantirilmagan go'sht va sut mahsulotlarini istemol qilishi oqibatida kasallanadi. **Qo'zg'atuvchisi** - brusellalar, mayda sharsimon, uzunchoq, ovalsimon aerob bakteriya, uzunligi 0,5 dan - 1,5 mkm gacha, spora hosil qilmaydi, grammanfiy, anilin bo'yog'ida och- qizil ranga yaxshi bo'yaladi. Brusellalar 70° Cda 50 minutda o'ladi, sho'r kislotali muhit brusellalarga o'ldiruvchi tasir qiladi. Yangi so'ndirilgan ohakni 5 % li eritmasi mikroblarni 2 soatda o'ldiradi.

Brusellalarni 6 turi mavjud: 1. *B. mellitenzis* - qo'y va echkilar kasallanadi. 2. *B. abortus* – qoramollarda. 3. *B. suis* - cho'chqalarda. 4. *B. kanis* – itlarda. 5. *B. ovis* - qo'chqorlarda. 6. *B. neotomiye* - kalamushm sichqonlarda. Brusellar past temperaturada o'z tirikligini uzoq vaqt saqlab qoladi. Sut go'sht va sut mahsulotlarida ular tirikligini ko'p kungacha saqlab qoladi. **So'yilgandan keyin diagnoz:** Brusellyoz kasalligiga so'yilgandan keyin ham diagnoz qo'yish ancha murakkab, chunki tanani birlamchi qayta ishlash vaqtida jinsiy organlarni to'lig'icha ko'rilmaydi. Kasallikda patologoanatomik o'zgarishlar quyidagicha nomoyon bo'ladi. Bola tashlashdan oldin va keyingi holatda ham qinni shilliq pardasi rangi qizil va shishgan bo'ladi. Bachadon shilliq qavatida yiringli yallig'lanish, bachadonda shilimshiq yiringli va fibrindan tashkil topgan ekssudat to'planadi. Sut bezida fibrinli, yiringli mastit, sut bezi biriktiruvchi

to'qimalarni o'sishi hisobiga konsistensiyasi qattiqlashgan. Limfa tugunlari kattalashgan holatda, kesilgan yuzasida nuqta-nuqta dog'lar va sariq rangda nekroz o'chog'lari ko'rinadi. Ichki parenhimatoz organlarda ham (jigar, buyrak, taloq va boshqa organlarda) har xil kattalikdagi yiringli va nekroz o'chog'lari ko'rinadi. Bu organlar atrofi limfa tugunchalari ham kattalashadi va boshqa o'zgarishlar bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan patologoanatomik o'zgarishlardan tashqari oldingi oyoq bo'g'inida bursit, orqa oyoq bo'g'imida absess, erkak hayvonlarda arxit- urug'donni yallig'lanishini ko'rish mumkin. **Go'sht va go'sht mahsulotlarini sanitariya jihatidan baholash:** Aniq klinik belgilarga va patologoanatomik o'zgarishlarga ega bo'lgan hayvonlardan olingan go'sht qaynatilgandan so'ng ishlatishga ruhsat beriladi. Qoramollar - chuchqalar qonini seralogik tekshirilganda (RSK, RA) musbat natija bergan bo'lib, lekin so'yilgandan keyin uning go'shti va ichki organlarida o'zgarishlar bo'lmasa, go'sht va ichki organlari to'xtovsiz ishlatiladi. Qo'y va echkilarda seralogik reaksiyalarga musbat natija ko'rsatgan bo'lsa, ulardan olingan go'sht kalbasa va konserva ishlab chiqarishga jo'natiladi. Bunday go'shtdan faqat qaynatilgan kalbasa tayyorlanadi va tayyorlash vaqtida batonlar 88-90°C da qaynatilib, batonni ichki harorati 75° C ga chiqqunicha davom ettiriladi. Qo'y turi uchrab turadigan xo'jaliklardan olib kelingan qoramol va cho'chqalar, RA va RSK reaksiyasiga musbat natija berib, ichki organlarida o'zgarishlar bo'lmagan taqdirda ham ulardan olingan go'sht kalbasa uchun jo'natiladi. Bunday mollar go'sht korxonalariga jo'natilayotganida veterinariya guvohnomasida serologik reaksiya natijalari va xujalikni epizotologik holati ko'rsatiladi. Klinik belgilari aniq hayvonlarni ichki organlarida o'zgarishlar va jarohatlar bo'lsa, bu organ va to'qimalar texnik o'tilizasiya qilinadi. Brusellyoz hayvon go'shtidan ajratilgan suyaklardan, suyak uni tayyorlanadi. RSK va RA reaksiyalari natijalari musbat bo'lsa, hayvonlardan olingan ichaklar, oshqozon, qizilo'ngach va siydik xaltasi, tarkibida 0,5% xlorid kislatasi bo'lgan 1% natriy xlor eritmasida 15-20° haroratda 48 soat ushlab turiladi. Klinik belgilari aniq bo'lgan mollardan olingan ichak, oshqozon, qizilo'ngach util qilinadi.

Umuman, mazkur kasallik turlarini barcha bilishi va undan o‘zini himoya qilishi lozim bo‘ladi. Bu borada mutaxassislarning hissasi kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.M.Murodov. Veterinariya -sanitariya ekspertizasi. Darslik. Samarqand 2006.
2. Ibragimov F.B. va boshqalar. “Veterinariya sanitariya ekspertizasi” fani o‘quv uslubiy majmuasi. T-2024.